

# ЎЗБЕКИСТОН ВА ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК АЛОҚАЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

**Махмудов Д.А.**

ЎзМУ Тарих факультети 2-босқич магистранти

XXI аср бўсағасида дунёдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар тубдан ўзгарди, инсон ва инсоният, одам ва олам тақдирига даҳлдорлик ҳисси тобора кучайди. Ана шу жараёнда Ўзбекистон ёш мустақил давлат сифатида тўла ҳуқуқли асосда энг обрўли ва нуфузли халқаро ташкилотлар таркибига кириб, уларнинг ишида фаол қатнашаётганлигини алоҳида таъкидлаш жоиздир.

1991 йил 31 августда мамлакат Олий Кенгашининг VI сессиясида қабул қилинган «Мустақиллик ҳақидаги баёнот»да Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатдаги йўли аниқ қилиб белгилаб берилди<sup>1</sup>. Шу асосда қисқа муддат ичида Биринчи Президент И.А.Каримов бошчилигида Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсатидаги фаолиятининг асосий тамойиллари ишлаб чиқилди. Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятини белгиловчи асосий тамойиллар Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида ҳам ўз аксини топди<sup>2</sup>. Шунини алоҳида таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислам Каримов ўзининг кўплаб асарлари, маъруза ва нутқларида ташқи сиёсий ва иқтисодий алоқаларнинг асосий тамойилларини назарий ва амалий жиҳатдан пухта асослаб берганлар. Шу асосда қисқа давр ичида мамлакатимизнинг ташқи сиёсий фаолиятининг ҳуқуқий базаси шакллантирилди.

Ўзбекистон Республикаси қисқа даврда жаҳондаги йирик халқаро ташкилотлар БМТ<sup>3</sup>, Жаҳон почта иттифоқи, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, Осиё ва Тинч океани иқтисодий ва ижтимоий комиссияси, Халқаро Меҳнат ташкилоти, Халқаро электр алоқалари Иттифоқи, Халқаро

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси: Мустақил давлатнинг бунёд бўлиши. – Т. Ўзбекистон, 1992. – Б.8.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. IV – Боб, 17- модда. – Т. Ўзбекистон, 2003. – Б. 6.

<sup>3</sup> Бирлашган Миллатлар Ташкилоти. Асосий омилар. – Т., БМТнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. 2001. – Б. 6.; (2009 йилда аъзо мамлакатлар сони 192 тага етди. Ўзбекистон Овози, 2009 февраль).

Реконструкция ва ривожланиш банки, Халқаро валюта фонди, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти, Иқтисодий ҳамкорлик ташкилоти, Шимолий Атлантика ҳамкорлиги ташкилоти Кенгаши, Европада тикланиш ва тараққиёт банки, Қўшилмаслик ҳаракати, Божхона ҳамкорлиги кенгаши, Халқаро Олимпия кўмитаси, Халқаро метрология ташкилоти, ЮНЕСКО, Халқаро атом энергетикаси Агентликлари билан алоқа ўрнатиб, аъзоликка қабул қилинди<sup>4</sup>.

Минтақада ташкил этилган ва ҳозирда ўзининг кенг кўламли самарасини бераётган Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ) билан ҳамкорликнинг йўлга қўйилиши Ўзбекистоннинг халқаро ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорлигида янги саҳифа бўлди. 2001 йил 14-15 июнида бўлиб ўтган Хитойдаги Шанхай саммитида Биринчи Президент И.А.Каримов катнашди ва Ўзбекистоннинг «Шанхай форуми»га тўла ҳуқуқли аъзо бўлиши тўғрисида баёнотни имзоладилар<sup>5</sup>. Ўзбекистон унинг асосчиларидан бири бўлди. Евроосиёда улкан хавфсизлик ва ҳамкорлик зонасини вужудга келтиришга қаратилган мазкур уюшмага аъзо бўлишдан Ўзбекистон ҳам манфаатдордир. Бу улкан ҳудудда сиёсий ва иқтисодий қудрати, фан-техника ва юқори технология соҳасидаги ютуқлари, қолаверса, ҳарбий салоҳияти билан ажралиб турувчи, БМТ хавфсизлик кенгашининг доимий аъзолари ҳисобланган Россия ва Хитойнинг ҳудудий жойлашганлиги муҳим аҳамият касб этади<sup>6</sup>. Ўзбекистоннинг ШХТга аъзоликдан мақсади ватанимизнинг хавфсизлигини ва барқарор ривожланишини мустаҳкамлашдир.

2004 йил 17 июнь куни Тошкентда ШХТ га аъзо давлатлар раҳбарларининг саммити бўлиб ўтди<sup>7</sup>. Унда икки асосий масала – хавфсизлик ва савдо-иқтисодий ҳамкорлик бўйича музокаралар бўлди. Бутун дунёда террорчиликни кучайиб, ядровий, кимёвий, биологик, электрон

<sup>4</sup> ЦГА РУз. Республика Узбекистан членство в международных организациях. ф. М-2. оп, 1. д, 169. л, 38.

<sup>5</sup> Каримов. И.А. ШХТ га аъзо давлат раҳбарларининг 2001 йил 6-7 июндаги саммитида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи. 2001 йил 20 июнь.

<sup>6</sup> Олламов Я. Абдуллаев О. Ўзбекистон ва Шанхай ҳамкорлик ташкилоти // Ўзбекистон жаҳон ҳамжамияти тизимида // Республика илмий – назарий анжуманининг илмий тўплами. – Т., 2005. – Б. 251-252.

<sup>7</sup> Ташкентский саммит в развитии сотрудничества // Экономическое обозрение. – Т., 2004. № 6. – С. 23-27.

террорчиликни молиялаштирадиган марказларга қарши кескин кураш олиб бориш зарурлиги таъкидланди. Шу боисдан Тошкентда ташкил этилган МАТТ<sup>8</sup> зиммасига ахборот алмашиш, чегара ва божхона қўмиталарининг махсус хизматларнинг ҳамкорлигини мувофиқлаштириш, шу орқали терроризмнинг олдини олиш вазифаси юклатилган.

Ўзбекистон Марказий Осиё ҳудудидан ўтадиган ҳамда ШХТ аъзо-давлатларининг МДХ, ЕИ, Жанубий ва Жануби-шарқий Осиё давлатлари билан савдо-иқтисодий алоқаларни йўлга қўйиш ва мустаҳкамлашга хизмат қиладиган транспорт коммуникация лойиҳалари, йўлак ва маршрутларни амалга оширишга қаратилган ғоя ва таклифларни қўллаб-қувватлайди. Аъзо-давлатлар бошлиқлари Кенгашининг 2005 йил Қозғистон пойтахти Остонада бўлиб ўтган саммитида қатнашчилар ташкилотнинг келажак фаолияти йўлидаги умумий ҳаракатларни ўзида бирлаштирган янги меъёрий ҳужжат – ШХТ Декларациясини қабул қилишди.

2006 йил 14–15 июнь кунлари Шанхай шаҳрида ШХТ давлат бошлиқлари Кенгашининг олтинчи саммити бўлиб ўтди. Мазкур саммит якунида ШХТ фаолиятининг беш йиллик натижалари тўғрисидаги Декларация, ШХТ аъзо – давлатлар бошлиқлари Кенгашининг халқаро ахборот хавфсизлиги тўғрисидаги қарори ва терроризм, экстремизм ва айирмачиликка қарши кураш, иқтисодиёт ҳамда таълим соҳаларидаги ҳамкорлик борасида ҳужжатлар қабул қилинди. Шунингдек, аъзо – давлатлар ўртасида биргаликдаги аксилтеррористик ҳаракатлар ўтказиш ва хавфсизликни мустаҳкамлаш тўғрисида бир қатор келишувлар ҳам имзоланди.

Ўзбекистон Республикаси 2010 йил давомида ШХТга раислик даврида улкан ишларни амалга оширилиб, катта муваффақиятларга эришди. Хусусан, БМТ Бош қотиби Пан Ги Муннинг 2010 йил апрель ойида мамлакатимизга ташрифи амалий аҳамиятга эга бўлиб, айниқса БМТ ва ШХТ қотибиятлари

---

<sup>8</sup> МАТТ – Минтақавий аксилтеррористик тузилмаси, 2004 йил ташкил этилган. Ушбу ваколатли тузилманинг штабс- квартираси Тошкент шаҳрида жойлашган.

ўртасида ҳамкорлик тўғрисидаги Қўшма декларация имзоланиши улкан тарихий воқеалик бўлди. Бу тарихий ҳужжатнинг имзоланиши, албатта, ШХТ ва унга аъзо давлатлар олдида турган муҳим вазифаларни ҳал этишда БМТ минбаридан янада фаолроқ фойдаланиш, шу билан бирга мавжуд глобал муаммоларни баҳамжихат ҳал этилиши имконини беради.

Хусусан, Ўзбекистон ШХТга аъзо давлатларнинг 2020 йилгача мўлжалланган кўп томонлама савдо-иқтисодий ҳамкорлик дастурини<sup>9</sup> ижро этиш бўйича чора – тадбирлар режасини амалга оширишга алоҳида эътибор қаратмоқда. Жумладан, ШХТ учун транспорт коммуникацияларини ривожлантириш устувор масалалардан саналади. Э – 40 халқаро маршрутини реконструкция қилиш имкон қадар тез якунига етказиш барча аъзо – давлатлар учун муҳим аҳамиятга эга эканини инобатга олиб, Ўзбекистон бу йўлнинг ўз ҳудудидаги қисми бўйича мажбуриятларни тўла бажариб бўлди. Айни пайтда мамлакатимиз Э–40 халқаро маршрутининг марказида “Навоий” эркин индустриал–иқтисодий зонасини барпо этди. Шубҳа йўқки, Марказий Осиёда янги қўшма лойиҳалар амалга оширилгани сайин, яъни ишлаб чиқариш корхоналари ва йўллар барпо этиш кўпайгани сари ШХТ мамлакатлари учун “Навоий” эркин индустриал–иқтисодий зонасининг аҳамияти ошиб бораверади. Ташкилот аъзолари уни ривожлантиришда фаол иштирок этиши мумкин.

Умуман олганда, Ўзбекистон ўз мустақиллигининг қисқа даври давомида халқаро муносабатларни йўлга қўйиш ва ривожлантириш, унинг нуфузини кўтариш борасида асрларга тенг ишлар амалга оширди. Бу жараён Ўзбекистоннинг ШХТ билан ҳамкорлик алоқаларида ҳам ўзининг яққол ифодасини топмоқда.

---

<sup>9</sup> Ушбу дастур 2003 йилнинг сентябрь ойида Пекинда давлат раҳбарлари Кенгаши томонидан тасдиқланган бўлиб, унда ШХТ аъзо-давлатлар ўртасида кўп томонлама савдо-иқтисодий ҳамкорликнинг истикболли, ШХТни мустаҳкамлаш, унинг доирасидаги иқтисодий ҳамкорликни мустаҳкамлаш белгилаб қўйилган. Мазкур ҳужжатда аъзо-давлатларнинг 2020 йилгача амалий фаолиятининг йўналишлари, мақсад ва вазифаларининг қайд этилиши билан биргаликда, уларни амалга ошириш йўллари ва усуллари ҳам акс этган.

## **QASHQADARYO USTIDA BULUTLAR YOXUD JABRLANGAN EL TARIXIDAN**

**Doniyev Sardor**

«O‘zbekiston tarixi» mutaxassisligi  
1-bosqich magistranti

XX asrning 80 – yillarida ich-ichidan yemirilib borayotgan sobiq Ittifoq ko‘rsatmasi bilan O‘zbekiston SSR xalqiga qarshi “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” uydurmaları o‘ylab topildi va tergov uchun bir to‘da desantchi kadrlar O‘zbekistonga jo‘natildi.

Telman Gdlyan va Nikolay Ivanovlar guruhi O‘zbekistonda tergov ishiga 1983-yil avgustida kirishdi. T. Gdlyan va N. Ivanov boshliq tergov guruhlarini O‘zbekistonda 200 – 300 nafar kishidan iborat tartibda ish ko‘rgan. Ularning soni doimo o‘zgarib, ko‘payib turgan. Ular qo‘lga olgan birinchi ish Buxoro viloyati ijroiya qo‘mitasi ichki ishlar boshqarmasi xodimlarini hamda Buxoro shahar sanoat savdosi direktori Qudratovni ayblash bo‘yicha boshlangan edi<sup>1</sup>. T. Gdlyan guruhining O‘zbekistondagi faoliyati davomida SSSR va O‘zbekiston SSR Ichki ishlar vazirliklarining 20 nafar rahbar xodimi, O‘zbekiston Kompartiyasi MQ ning to‘rt nafar kotibi, viloyatlardagi partiya qo‘mitalarining sakkiz nafar kotibi, O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumi Raisi, O‘zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri va boshqa bir qancha ma’sul xodimlari, umuman 62 nafar mas’ul shaxs pora olishda ayblanib, jinoiy javobgarlikka tortildilar. 1989 - yilning may oyiga qadar javobgarlikka tortilgan 35 nafar ayblanuvchining ishi sudga oshirildi. 1984-1989 yillar davomida T. Gdlyan guruhi tomonidan 800 dan ko‘proq “jinoiy” ish ko‘rib chiqildi. Jinoiy javobgarlikka tortilganlarning 600 nafari rahbar xodimlar, 10 nafari Sotsialistik Mehnat Qahramonlari bo‘lgan<sup>1</sup>. O‘zbekiston SSR Paxta tozalash sanoati vaziri V.Usmonovga esa 1986-yilda o‘lim jazosi belgilangan, hukm 1987-yilda amalga oshirilgan. “Paxta ishi” bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilganlarning ko‘pchiligini kolxoz raislari, sovxoz direktorlari, brigadirlar, ferma boshliqlari tashkil etgan edi.

---

<sup>1</sup> Ilyuxin V. Qabohat yohud .... – Toshkent. O‘zbekiston, 1993. - B. 9.

<sup>1</sup> Qarang: // Sovet O‘zbekistoni. 1989, 27 dekabr

Umuman olganda, 4018 kishi “paxta ishi” bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortilgan edi<sup>2</sup>. Gdlyanchilar guruhi O‘zbekistonda “Hamma pora oladi va hamma pora beradi”, deb hisoblar edi. Ular har bir kishiga axborot manbai deb qarashar va har qanday yo‘llar bilan bo‘lsa ham undan o‘sha axborotni sug‘urib olishga harakat qilishar edi. Aybsiz fuqarolarni ko‘plab ushlab keltirish va hibsga olish usuli ham xuddi mana shunday nazariya asosida qurilgan edi. Ular taxminan quyidagi qoida asosida ishlar edi: “Qo‘lingdagi tergovchilik shamshirini o‘ngga ham, chapga ham sermab boraver, oxiri kimgadir tegadi. Bu yerda hamma jinoyatchi, shuning uchun sening hatti harakatlaring bari –bir to‘g‘ri bo‘lib chiqadi va oqlanadi”. Ular shu darajadagi tubanlikka yetib borishgan ediki, natijada butun bir xalqni jinoyatchi deb e‘lon qildilar<sup>3</sup>. 1984-yilning iyun - oktabr oyining o‘zida 866 mas‘ul rahbar xodim “o‘g‘rilik va mansabini suiste‘mol qilganligi” aybi bilan jinoiy javobgarlikka tortildi. 1984-1985 yillar ichida viloyat, shahar, tuman partiya qo‘mitalari kotiblari, ijroiya qo‘mita raislari, ularning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalari rahbarlaridan ko‘pi o‘z lavozimlaridan olib tashlandi. Ularning orasida viloyat partiya qo‘mitalarining 22 kotibi ham bo‘lgan. 1984 yilning avgust-oktabr oylarida prokuratura, militsiya organlarida rahbarlik lavozimlarida ishlagan 671 kishi partiya saflaridan o‘chirildi. Qashqadaryo viloyatida ham 1983 – 1985 yillarda rahbar kadrlarni qariyb 900 nafari almashtirildi. Tuman va shahar partiya qo‘mitalarining qator kotiblari, ijroya qo‘mitasining raislari, xo‘jalik rahbarlari, shuningdek yaqinda ishga tavsiya etilgan, endigina ish boshlagan ko‘pdan - ko‘p ma‘sul shaxslar ishdan olib tashlandi.

1982 - yil 29- iyulda Talimarjon tuman 2-sovhoz direktori Mars Sharopov ustidan tergov ishi boshlandi. Ushbu ishda 41 kishi ustidan ish ko‘rildi. Ish sudda ko‘rilgunga qadar ehtiyot chorasi sifatida M.Sharopov, A.To‘liyev, M.Do‘stov va Normatovlar qamoqda saqlangan, qolganlari esa ochiqda qoldirilgan. Sud ishi 1984- yil 23-iyulda Qashqadaryo viloyat sudida ko‘rib chiqildi. Sudda ularga quyidagicha jazo choralari qo‘llanildi. M.Sharopov 15 yil, B.Xidirov 13 yil,

---

<sup>2</sup> Qarang: Yunusova X .XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma‘naviy hayot. Tarix fan.dok.ilm.dar.olish uchun yozilgan diss... –Toshkent, 2009. - 209 b

<sup>3</sup> Ilyuxin V. Qabohat yoxud... – B. 32.

M.Rustov 15 yil, A.To‘rayev 12 yil, M.Ortiqov 5 yil, R.To‘raqo‘lov 4 yil, Sh.Alimov 3 yil, R.Sherobodov 4 yil, J.Mirzayev 3 yil, B.Ro‘ziyev 6 yil, A.Nurboyev 5 yil, T.Soqidov 3 yil, M.Iskandarov 6 yil, B.Bahriddinov 4 yil, R.Islomov 3 yil, A.Abdunazarov 3 yil, X.Shukurov 3 yil, K.Normatov 3 yil, M.Xaydarov 3 yil, A.Ibrogimov 3 yil, S.Aliyarov 3 yil, A.Aliyarov 3 yil, N.Sharopov 3 yil, B.Asalov 3 yil, Y.Jalilov 3 yil, S.Jovliyev 3 yil, D.Aminov 3 yil, I.Xo‘jayev 3 yil, T. Hamdamov 3 yil, A.Aliyev 3 yil, A.Poyonov 3 yil, Sh.Shodiyev 3 yil, T.Holikov 3 yil, R.Mingliyev 3 yil, E.Umirov 3 yil, Sh.Mamatov 3 yil, I.Qurbonov 3 yil, X.Fayziyev 2 yil, N.Holikov 2 yil, K. Nurmanov 3 yil ozodlikdan mahrum qilindi<sup>1</sup>.

Shahrisabzlik O‘roq Qurbonov ishi bo‘yicha 1983-yil 24-noyabrda 13 kishi ustidan tergov ishi olib borildi. Ularning ishi 1985-yil 18-dekabrda Qashqadaryo viloyat sudida ko‘rib chiqilib, O‘.Qurbonovga 11 yil, B.G‘aniyevga 5 yil, E.Primovga 4 yil, K.Rasulovga 10 yil, A.Hurramovga 10 yil, B. Po‘latovga 4 yil, A.Qayumovga 6 oy, I.Ismoilovga 6 oy, X.Rahimovga 6 oy, Sh.Ahmedovga 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazo choralari qo‘llanilgan. U.Sultonov 1 yil, M.To‘rayev 1 yil, axloq tuzatish ishlariga jalb qilingan. I,Shoymurodov esa 12 yil ozodlikdan mahrum qilingan.

1983-yilda Hoshim Soliyevning ishi bo‘yicha ham bir necha kishi ustidan tergov ishi boshlab yuborildi va bu ish quyidagicha yakun topdi:

Soliyev Hoshim 13 yil, Mirzayev Islom 8 yil, Saidov 12 yil, B.To‘xtayev 13 yil, A.Sherov 3 yil, T.Jomurodov 3 yil, T.Jumayev 4 yil, T.Rahmonov 3 yil, T.Jabborov 3 yil, Qurbonova Tamara 2 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilindilar.

1984-yilda Mirzo Gadjiyev ishi bo‘yicha quyidagi kishilar jazolandilar: M.Gadjiyev 11 yil, R.Ismoilov 8 yil, A.Qurbonov 3 yil, N.Qorjovov 8 yil, T.Rahimov 3 yil, B.Bozorov 7 yil, X.Davronov 3 yil, U.Donyorov 7 yil, N.Qurbonov 3 yil, A.Ortiqov 6 yil, E.Dilmurodov 3 yil, Q.Odilov 10 yil, Y.Jo‘rayev 3 yil, E.Otaniyozov 6 yil ozodlikdan mahrum qilindilar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. - 5-6- varaq.

<sup>1</sup> Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. - . 2- varaq

1984-yilda Qodirov Amir ishi bo'yicha ham bir necha kishi ayblanib, jazolandi; Qodirov A. 8 yil, Norqulov E. 7 yil, A.Altiboyev 7 yil, K.Xidirov 5 yil, M.Egamshukurov 5 yil, S.Abdullayev 5 yil, B.Xaydarov 5 yil, Abdumo'min Norqulov 5 yil ozodlikdan mahrum qilindi<sup>2</sup>.

1984-yilda Akbarov Samad ishi bo'yicha quyidagi kishilar ustidan ish qo'zg'aldi, 1985-yil 28 -sentabrda ushbu ish Qashqadaryo viloyat sudida ko'rib chiqildi, hamda quyida nomlari keltirilgan kishilar jazoga tortildilar:

S.Akbarov 12 yil, D.Mamatov 12 yil, E.Qorayev 10 yil, Ne'mat Shukurov 12 yil, E.Qo'chqorov 14 yil, Jumanazar Ochilov 12 yil, Juma Bekmurodov 3 yil, Abduvosit Gulyamov 12 yil, A.Beytullayev 2 yil, X.Qo'ziyev 2 yil ozodlikdan mahrum qilindi<sup>3</sup>.

Bundan tashqari 1984-yilning o'zida Sh.Boboyorov, G.Bo'tanov, X. Norqobilov, M.Avlayev, Ne'mat Holiqov, K.Boyqo'ziyev, E.Xasanov, S.Xushvaqto'v, A.To'rayev, P.Xudoyberdiyev, X.Rahmonov, B.Yangiboyev, S.Mirzayev, Z.Melimurodovlar ustidan tergov ishi qo'zgatilib, har bir ishda 5 talab, 10 talab va undan ham ko'proq kishilar nohaq ayblanib, jazolandilar, bir necha yillar qamoqxonalarda o'tirishga majbur bo'ldilar.

Bunday holatlar 1985 – 1986, hatto, 1987-yillarda ham avjiga chiqsa - chiqdiki, pasaymadi. Bu yillarda ham nohaq jabr chekkanlar soni bir necha o'nlab, bir necha yuzlab kishilarni tashkil etdi.

1985-yilda quyidagi kishilar ustidan tergov ishlar qo'zg'atilib, ular bir necha yillab qamoq jazosini tortdilar: Abrayev 6 yil, M.Allayorov 15 yil, K.Jo'rayev 13 yil, D.Eshmamatov 13 yil, X.Xurramov 8 yil, B.Qurbonov 8 yil, K.Boymurodov 3 yil, K.Kamolov 3 yil, T.To'rayev 4 yil ozodlikdan mahrum qilindilar, mol – mulklari musodara qilindi.

1986-yilda ham xuddi shunday ahvol davom etdi. 1986-yildan Chiroqchi tuman Lenin kolxoz agrotexnigi Qo'chqor O'sanov ustidan tergov ishi boshlanib,

---

<sup>2</sup> Qashqadaryo viloyat sudi arxivi.– . 3- varaq

<sup>3</sup> Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. - 2-varaq

1986-yil 25-iyulda ushbu ish Qashqadaryo viloyat sudida ko‘rib chiqildi. Quyidagi kishilar aybdor deb topilib, jabrlandilar:

Q.O‘sanov 6 yil, B.Xolbozorov, Xolmamat Markayev, S.Arkayev 4 yildan, D.Markayev 3 yil ozodlikdan mahrum qilindi<sup>1</sup>.

1986-yil 20-fevraldan J.Shodiyev ustidan tergov ishi boshlandi. 1986 yil 4 sentabrda ish Qashqadaryo viloyat sudida ko‘rib chiqildi.

1968-1984 yillarda O‘zbekiston KP Qashqadaryo viloyat qo‘mitasining 1-kotibi bo‘lib ishlagan, 1922 - yilda tavallud topgan II-jahon urushi qatnashchisi Ro‘zimat G‘oyipov nohaq vazifasidan bo‘shatilib, Gdlyan va Ivanovchilarning azob - uqubatlariga chiday olmay, ularning ko‘zini shamg‘alat qilib, o‘z joniga qasd qildi<sup>2</sup>. Shu o‘rinda voqeaga aniqlik kiritib o‘tsak, Gdlyan va Ivanovlar tergov o‘tkazayotgan vaqtda Ro‘zimat G‘oyipov statsionar davolanishda bo‘lib, olib ketish uchun kelganlarida “hozir kostyumimni kiyib olay, chiqaman” deb statsionar xonada o‘z joniga qasd qiladi.

Xulosa qilib aytganda, T.Gdlyan va N.Ivanovlar olib borgan tergovlari natijasida ko‘pdan ko‘p begunoh insonlar: mas’ul rahbarlardan tortib, oddiy brigadirlargacha nohaq jabrlandilar va ertangi kunga nisbatan umidsizlik kayfiyati paydo bo‘lib, rivojlana bordi. Shu o‘rinda aytish joizki, qashqadaryoliklar uchun yorug‘ kunlar yaqinlashmoqda edi.

---

<sup>1</sup> Qashqadaryo viloyat sudi arxivi. 4-varaq.

<sup>2</sup> Мўминов О. Афсонага айланган одам.-Қарши:Насаф,1992.

## **O‘ZBEKISTONDA «TA’LIM HAMMA UCHUN» MILLIY DASTURINI JORIY QILISH BOSQICHLARI**

1994 yillarda YUNESKO “Maxsus ta’lim zaruriyati” nomli xujjatni tayyorlab, unda maxsus talimga muxtoj bolalar va yoshlar uchun talimni tashkil etish va takomillashtirish masalalari kurib chiqilgan. Ushbu talim turida asosiy urin **reabilitatsiya** masalalariga ajratilgan. Xujjatda: «Maxsus talimni aloxida yordamga muxtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad - jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va usmirlarni mustaqil, xamma qatori yashash sharoitida **jamiyatga tiklash**. «-deb, ta’kidlangan. Bolada nuqson bo’lishiga qaramay uning qo’lidan keladigan ish turini unga o’rgatib, uqitib, tarbiyalab, jamiyatda o’z urnini topib ketishga yordam berish - **ijtimoiy reabilitatsiya**.

Rivojlangan mamlakatlarda “Maxsus talim zaruriyati” nomli xujjatga javoban SVR –Reabilitatsiya tashkiloti (Sommin.Vased ReabilitatIop) tashkil etildi. Tashkilot nogironlar jamiyati, nogironlar oilalari, sog’liqni saqlash, mexnat va axolini ijtimoiy muhofaza etish xamda kasaba uyushmalari vakillarini o’z ichiga qamrab olgan.

Bunday nufuzli tashkilotning asosiy maqsadi - jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolalarni himoyalash, xuquqlarini tiklash, vakolat berish, talim-tarbiya tizimini shakllantirish, jamiyat va raxbariyat diqqatini bu narsaga jalb etishdir.

Aloxida yordmga muxtoj bulgan bolalar uchun tashkil etilgan talim tizimida birinchi navbatda bolaning talablari o’rganiladi, ijobiy tomonlari, qobiliyati hisobga olinadi, kamchiliklari urganiladi, Ushbu talim tizimida ma’lum sharoit yaratilishi lozim. Bunga modifikatsiya, kompensatsiya, adaptatsiya ,reabilitatsiyalar kiradi. Masalan, agarda bola eshitmasa, uni eshitish apparati bilan ta’minlash; yura olmasa - nogironlar aravachasidan foydalanish, qulida oddiy qoshiq ushlay olmasa, uni boshqa qulay uskuna bilan ta’minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta’lim bu maxsus yordamga muxtoj bolalar va yoshlar uchun individuallashtirish va sharoitga qarab o’zgaruvchan, g’amxurlik bilan yondasha oladigan ta’lim tizimidir. Ushbu ishlar oddiy, me’yorda rivojlangan bolalar ukuv muassasalarida amalga oshiriladi. Inklyuziv-jalb etish (vklyucheniye) degan ma’noni anglatadi, ya’ni jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni sog’lom tengdoshlari bilan o’zaro bog’lanib, birgalikda ta’lim olishidir. Buni amalga oshirish uchun har bir bolaga individual yondoshish, nuqsonidan kelib chiqqan xolda ma’lum u uchun qulay sharoit yaratish, kerak bulsa, dastur va rejani qisman uzgartirish va x.k. Anomal bola uyiga yaqin, o’ziga qulay ommaviy bog’cha yoki maktabga qatnaydi. U yerda asosiy ishni tarbiyachi yoki sinf rahbari amalga oshiradi. Xar bir maktabgacha tarbiya muassasasida

yoki maktabda maxsus tayyorlangan resurs tarbiyachi bulib, u gurux tarbiyachisiga maslahatlar beradi va kumaklashadi: maxsus uqitish uskunalari, aparatlari bilan ta'minlaydi; ota-onalar, o'qituvchilar bilan tushuntirish ishlari utkazadi: dars jadvali, dasturga, kerak bulsa ,uzgartirishlar kiritadi, ularni asoslab beradi; o'qituvchilarni malakasini oshiradi, bilim maxoratini boyitadi; sog'likni saqlash xizmatlarini tashkil etadi, qulay psixologik muxitni yaratadi. Jismoniy yoki ruxiy rivojlanishida nuqsoni bulgan bolani oddiy bog'cha yoki maktabga joylashtirish integratsiya yo'lidagi birinchi qadam. Ta'lim integratsiyasining turli shakllari va darajalari mavjud. Jismoniy integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi jismoniy tafovut iloji boricha kamaytirilishi lozim. Buning uchun maxsus sinf yoki bulim tashkil etilishi mumkin. Funktsional integratsiyada nogiron va sog'lom bola orasidagi funktsional tafovut iloji boricha bartaraf etilishi lozim. Buning uchun aloxida yordamga muxtoj bolalarni musiqa, san'at, drammatik tugarak va sportga jalb etish foydalidir.

Ijtimoiy integratsiya ijtimoiy tafovutni kamaytirishga, nogiron va me'yorda rivojlangan bolalarni uzaro dustlashishga, bir biriga xurmat bilan qarashga undaydi, me'yorda rivojlangan bolalarni muruvvatli bulishga o'rgatadi. Jamiyat nogiron kishilarga tug'ri munosabatda bulishi kerak. Konstitutsiyamizdagi barcha bandlar ular uchun ham ta'alluqli. Har qanday ta'lim integratsiyasi inklyuziv ta'lim sifatini oshiradi. Inklyuziv ta'lim markazida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bola turadi, unga har tomonlama g'amhurlik kursatiladi.

Integratsiyalashgan - mujassam, ajratib brlmaydigan qism degan maunoni bildiradi. Xar bir bola ta'limga jalb etilishi lozim. Integratsiyalashgan jamiyatda barchalar teng xuquqga ega, bu yaxlit jamiyatdir. Inklyuziv ta'lim tufayli jamiyat integratsiyalashgan jamiyatga aylanadi.

2001 yilda YUNESKO "Ta'lim xamma uchun" dasturini qabul qiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi xam, ushbu dasturga imzo chekkan. Dastur global, keng miqyosida "Ta'lim xamma uchun" (Obucheniye dlya vsekh) joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi. O'zbekistonda «Ta'lim xamma uchun» milliy dasturi 2005 yili dekabr oyida qabul etildi. Shu davrdan beri uni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv ta'lim haqidagi xujjatlar rasmiylashtirilmoqda, hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini o'rganib chiqib, inklyuziv ta'limning ayrim turlarini joriy etmoqdalar. O'zbekistonda YUNESKONING ta'lim bo'yicha maslahatchisi yordamida Respublika ta'lim markazining maxsus ta'lim bulimi a'zolari, "Oila" Ilmiy pedagogik markazi, Nogiron farzandli ayyollar jamiyatlari, "Umr" markazi, "Ulybki detyam" halqaro jamiyatning O'zbekistondagi guruxi (Lorans Mirelett-direktori), "Umid" markazi, (Maxmudova N.M-direktor), xalqaro "Opereyshin Mersi" tashkiloti (direktor-Andreya Vogt), "Kenes-" sentr reabilitatsii i trudovoy adaptatsii

(direktor-Suleyeva M.M.), "Beguborlik"-ijtimoiy birlashma (raisi–AbdubekovaD.N), "PEGAS-AL-FALAK" markazi (direktor-AminovaV.YU.) "KRIDI", "Feniks"markazi (direktor-Yusupova G.S.Navoi viloyatida), Respublika Ijtimoiy adaptatsiya markazi va boshqalar talaygina muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

O'zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari xam diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta'lim elementlari talaygina. Kup yillardan beri umumta'lim maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o'z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir tumandagi yordamchi mexnat ta'limi maktabi, me'yorda rivojlangan bolalar ta'lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o'quvchilar bilan yil davomida ma'lum ishlarni olib borishmoqda, ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta'lim shakllaridan biri bo'lib xisoblanadi.

Respublikada inklyuziv ta'lim siyosatini keng joriy kilishga karatilgan chora-tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini urganish davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorlik loyihalari, jumladan: Xalqaro UNESCO, UNICEF,Osiyo Tarakkiyot Banki, Osiyo, mintakasi Yaponiyada joylashgan UNESCONING madaniy markazi (ACCU), USAID, «MERCY PROJEKT», «OPERATION «MERCY»nodavlat tashkilotlari, «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi» (RBIMM), «Sen yolg'iz emassan», «Ijtimoiy tashabbuslarni kullab-kuvvatlash fondi» (ITK.KF), Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o`rta mahsus ta'lim vazirligining pedagogika yunalishidagi institutlari, xalq ta'lim xodimlarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash va milliy nodavlat jamoa tashkilotlarining hamkorlik loyihalari asosida respublika va xalqaro seminar, konferensiya, forumlarni o`tkazish targ'ibot-tashviqot ishlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

## **Вклад Первого Президента Узбекистана Ислама Абдуганиевича Каримова в развитие дружеских отношений с Российской Федерацией**

После обретения независимости одним из главных внешнеполитических направлений для Узбекистана являлось взаимоотношение с его традиционными партнерами, входящими в СНГ. При этом отношения с Россией считались наиболее важными.

В первые годы независимости Узбекистан в первую очередь проявил заинтересованность в установлении равноправных и дружеских связей с Российской Федерацией, которая располагает богатейшими возможностями, в том числе и в сфере промышленного производства. Первый Президент Узбекистана Ислам Абдуганиевич Каримов, в частности отметил: «Россия была и остается великой державой как в экономическом, так и в военно – техническом отношении»<sup>10</sup>. Поэтому Узбекистан стремился к сотрудничеству и дальнейшему сближению с Россией, в создании системы коллективной безопасности в целом в вопросе об интеграции в рамках СНГ, в укреплении связей, установлении стратегического сотрудничества. Следует особо отметить, что это сближение в национальных интересах не только Узбекистана, но и России, потому что стабильная ситуация и партнерство с ближайшим соседом всегда были в сфере приоритетных интересов любого государства. В частности, Российская Федерация признала Республику Узбекистан 20 марта 1992г.<sup>11</sup>, и в тот же день были установлены дипломатические отношения. Двусторонние отношения характеризуются регулярными встречами на высшем и высоком уровнях, обретшими за последние годы характер доверительного диалога между стратегическими партнерами и союзниками.

Взаимоотношения Узбекистана с Россией в постсоветский период – одно из важных направлений внешнеполитической стратегии обоих государств. Узбекистан рассматривает Россию как государство, обладающее наиболее мощным политическим и военно – техническим потенциалом постсоветского пространства, а также признает ее важную роль в Центральной Азии. С другой стороны, Россия также осознает ведущие

---

<sup>10</sup> Кобзева О. П., Сиддиков Р.Б. Международное сотрудничество Узбекистан в годы независимости. - Т., 2016. - С.19.

<sup>11</sup> [http://www.uzembassy.ru/uzb\\_rus.htm](http://www.uzembassy.ru/uzb_rus.htm)

позиции Узбекистана в Центральной Азии. Узбекско-российские отношения определяются изменениями, происходящими на постсоветском пространстве.

С момента установления в 1992 г. дипломатических отношений межгосударственные связи развивались неравномерно, из-за влияния комплекса внутреннеполитических и международных факторов<sup>12</sup>.

Отношения Узбекистана с Российской Федерацией стали более тесными с приходом в правительство В.В. Путина, а затем с его избранием Президентом Российской Федерации<sup>13</sup>. С этого момента взаимоотношения приобрели стратегический характер. Новый формат отношений охватывал, прежде всего, интенсификацию политического диалога, экономического сотрудничества, взаимной озабоченности угрозой международного терроризма как в России, так и в странах Центральной Азии. Началу этого процесса положил визит в Узбекистан главы правительства России В.В. Путина в декабре 1999г., в результате которого был подписан договор о дальнейшем углублении всестороннего сотрудничества<sup>14</sup>.

После избрания Президентом России В. Путин совершил первый государственный визит в Узбекистан в 2000г., что свидетельствует о важности для России сотрудничества с Узбекистаном, его роли в регионе и СНГ. По итогам переговоров с Первым президентом Исламом Абдуганиевичем Каримовым было сделано совместное заявление о необходимости противодействия международному терроризму и религиозному экстремизму, а также борьбы с незаконным оборотом и распространением наркотиков и оружия. В ходе визита Владимир Путин посетил Исламский университет в Ташкенте<sup>15</sup>.

В свою очередь Первый Президент Узбекистана Ислам Абдуганиевич Каримов совершил визит в Россию в мае 2001г.,<sup>16</sup> которому был дан статус государственного, что способствовало дальнейшему развитию взаимовыгодного сотрудничества между странами. В частности, с 2001 года в г. Ташкенте начало функционировать первое на постсоветском пространстве в странах Центральной Азии Представительство Росзарубежцентра, открытое в рамках Межправительственного соглашения от 6 мая 1998 г. между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан о деятельности информационно-культурных центров в России и Узбекистане<sup>17</sup>.

---

<sup>12</sup> <http://www.russia.uz/index.php/2009-08-16-10-30-58/2009-08-16-10-31-45>

<sup>13</sup> <http://biofile.ru/his/32022.html>

<sup>14</sup> [http://businesspravo.ru/Docum/DocumShow\\_DocumID\\_61621.html](http://businesspravo.ru/Docum/DocumShow_DocumID_61621.html)

<sup>15</sup> <https://uzbchron.wordpress.com/2014/12/10>

<sup>16</sup> Кобзева О. П., Сиддиков Р.Б. Международное сотрудничество Узбекистан в годы независимости. - Ташкент. 2016. – С.21.

<sup>17</sup> <http://uzb.rs.gov.ru/node/1>

Укреплению двусторонних отношений способствовало подписание в Ташкенте 16 июня 2004 г., В. В. Путиным и Первым Президентом И.А. Каримовым бессрочного договора «О стратегическом партнерстве между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан»<sup>18</sup>, согласно которому Республика Узбекистан и Российская Федерация активно взаимодействуют в Организации Объединенных Наций, ее специализированных учреждениях, в Организации по безопасности и сотрудничеству в Европе, других многосторонних межгосударственных структурах. Они оказывают друг другу поддержку при рассмотрении в рамках международных процедур вопросов, затрагивающих их национальные интересы. В частности, предусматривалось ускорение развитие интеграции и кооперации в топливно-энергетическом комплексе, авиастроении. В области транспорта и коммуникации, в банковской сфере, энергетике, мирном использовании атомной энергии. Согласно Договору, стороны взяли обязательства взаимодействовать на двухсторонней и многосторонней основе в реализации экономических, гуманитарных и других проектов и программ в рамках интеграционных процессов в центральноазиатском регионе<sup>19</sup>.

14 ноября 2005 г. между двумя странами был заключен договор «О союзнических отношениях между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан»<sup>20</sup>. По словам российского Президента В.В. Путина, договор выводит Россию и Узбекистан на максимально близкую ступень взаимодействия. По мнению Первого Президента И.А. Каримова, договор служит стратегическим целям Узбекистана и России в сфере обороны и создает возможности для поднятия на новый уровень политического, экономического, культурного сотрудничества.

В сфере торгово-экономических отношений последовательно был реализован Договор об углублении экономического сотрудничества на 1998-2007гг.<sup>21</sup>

В Узбекистане действует 885 предприятий с участием российского капитала, аккредитованы представительства 102 российских фирм. В России насчитывается 489 предприятий созданных совместно с российскими партнерами. Был разработан и утвержден план мероприятий по реализации межправительственной узбекско-российской программы экономического

---

<sup>18</sup> <http://www.zakonprost.ru/content/base/80050>

<sup>19</sup> Кобзева О. П., Сиддиков Р.Б. Международное сотрудничество Узбекистан в годы независимости. - Ташкент. 2016.- С.21.

<sup>20</sup> [http://www.mid.ru/ru/maps/uz/-/asset\\_publisher/n9psHApVxR46/content/id/421148](http://www.mid.ru/ru/maps/uz/-/asset_publisher/n9psHApVxR46/content/id/421148)

<sup>21</sup> <http://docs.pravo.ru/document/view/18367142/>

сотрудничества на 2013-2017годы. Также было принято решение Узбекистана о вхождении в зону сводной торговли СНГ<sup>22</sup>.

Договоренности, достигнутые в ходе официального визита Первого Президента Узбекистана Ислама Абдуганиевича Каримова в Россию в апреле 2013 года<sup>23</sup>, заложили прочную основу для дальнейшего торгово-экономического сотрудничества между двумя странами.

Взаимоотношения Узбекистана и России осуществляется также в рамках региональных и международных организаций. В частности, наряду с другими государствами они являются организаторами Содружества Независимых Государств (СНГ)<sup>24</sup> и Шанхайской организации сотрудничества (ШОС)<sup>25</sup>, а также в ООН. Обе страны поддержали также решение глав государств-членов ОЦАС на саммите в Петербурге 7 октября 2005г.<sup>26</sup> об интеграции этой организации в Евразийское экономическое сообщество (ЕврАзЭС) в связи с тем, что Узбекистан принял решение о вступлении в ЕврАзЭС<sup>27</sup>. 25 января 2006 г. в Санкт-Петербурге на саммите был подписан протокол о приеме в ЕврАзЭС Узбекистана<sup>28</sup>.

Россия и Узбекистан проводят консультации и оказывают друг другу поддержку в рамках ШОС. В частности, на встрече глав правительств ШОС в Ташкенте в ноябре 2007г.<sup>29</sup> Узбекистан поддержал инициативу России по созданию энергетического клуба ШОС, который наладил контакты с ЕС, ООН, ОБСЕ, АСЕАН и другими международными и региональными организациями.

19-20 апреля 2010 года Первый Президент Узбекистана посетил Москву с официальным визитом. В ходе визита главы России и Узбекистана обсудили расширение двустороннего сотрудничества и актуальные проблемы регионального и международного характера. По итогам переговоров был подписан ряд двусторонних документов<sup>30</sup>.

Во время двусторонней встречи на саммите ШОС в Уфе в июле 2015 года Владимир Путин пригласил Ислама Каримова посетить Россию с государственным визитом. 25 апреля 2015 года состоялся официальный визит Первого Президента Узбекистана Ислама Абдуганиевича Каримова в Москву. В ходе визита Ислам Абдуганиевич Каримов и Владимир Владимирович Путин обсудили актуальные вопросы узбекско-российской

<sup>22</sup> Народное слово. 27 декабря 2013г.

<sup>23</sup> <http://podrobno.uz/cat/politic/segodnya-nachnetsya-ofitsialnyy-vizit-islama-karimova-v-rossiyu/>

<sup>24</sup> <http://ru.sputniknews-uz.com/society/20161027/3993698/Rossiia-Uzbekistan-sotrudnicestvo.html>

<sup>25</sup> <https://ria.ru/spravka/20160623/1449787519.html>

<sup>26</sup> [https://ria.ru/trend/meeting\\_Saint\\_Petersburg\\_061005/](https://ria.ru/trend/meeting_Saint_Petersburg_061005/)

<sup>27</sup> <http://www.hab.kp.ru/daily/23644.4/49210/>

<sup>28</sup> <http://adilet.zan.kz/rus/docs/Z060000152>

<sup>29</sup> <http://www.cawater-info.net/news/11-2007/04.htm>

<sup>30</sup> [https://ria.ru/trend/karimov\\_visits\\_moscow\\_20042010/](https://ria.ru/trend/karimov_visits_moscow_20042010/)

повестки дня, обменялись мнениями по отдельным региональным и международным проблемам. По итогам переговоров было подписано ряд двусторонних документов, направленных на дальнейшее развитие сотрудничества между Узбекистаном и Россией в различных областях.

В апреле 2016 года состоялся последний официальный визит Первого Президента Узбекистана Ислама Абдуганиевича Каримова в Москву. На переговорах в Кремле главы двух государств обсудили широкий круг вопросов, касающихся сотрудничества в политической, экономической, военно-технической, культурно-гуманитарной и других сферах. Лидеры двух стран также обменялись мнениями по актуальным вопросам регионального и международного характера, в частности, по проблеме Афганистана, противодействия терроризму, экстремизму, наркотрафику и организованной преступности. Также особое внимание Президенты уделили работе в рамках председательства Узбекистана в Шанхайской организации сотрудничества. Были отмечены усилия Узбекистана по активизации деятельности ШОС, развитию регионального сотрудничества, укреплению мира и безопасности<sup>31</sup>.

2 сентября 2016 г. ушел из жизни Первый Президент Узбекистана Ислам Абдуганиевич Каримов. На церемонии прощания с Первым Президентом Узбекистана выступил глава, прибывшей делегации премьер-министр Российской Федерации Д.А. Медведев, в ходе которого было сказано, что: «Ушел из жизни выдающийся государственный деятель, с именем которого неразрывно связано история независимого Узбекистана. Под его руководством были достигнуты значимые успехи в государственном строительстве и социально-экономическом развитии. Также было отмечено большой личный вклад Ислама Абдуганиевича Каримова в развитие традиционно дружественных, партнерских и союзнических отношений, объединяющих Российскую Федерацию и Республику Узбекистан»<sup>32</sup>.

Глава Российской Федерации В.В. Путин в связи с событиями, связанные с Саммитом G-20, которые прошли в Китае не смог прибыть в Самарканд.

6 сентября 2016 года Президент Российской Федерации В.В. Путин прибыл в Самарканд чтобы почтить память Первого Президента Узбекистана И.А. Каримова. В частности, по прибытии в Самарканд глава российского государства сразу направился на кладбище, где 3 сентября был похоронен И.А. Каримов. На встрече с Ш.М. Мирзиёевым В.В. Путин заявил, что

---

<sup>31</sup> <https://www.gazeta.uz/ru/2016/04/27/visit>

<sup>32</sup> Даракчи плюс. – Ташкент, 2016. 8 сентября.

узбекский народ и руководство республики могут рассчитывать на Россию в полном объеме, как на самых надежных друзей.<sup>33</sup>

Также В.В. Путин подчеркнул, что Ислам Абдуганиевич Каримов заложил очень прочную основу во взаимоотношения между двумя странами, выстроил отношения именно как стратегические, стратегического партнерства. Президент Российской Федерации поблагодарил тогдашнего премьер-министра Узбекистана за возможность посетить Самарканд и почтить память Ислама Каримова, который так много сделал для своей страны, для своего народа и не только речь о стабильности, хотя это основа процветания любого государства, любого народа, и он смог это сделать в самые тяжелые времена<sup>34</sup>.

Таким образом, Первый Президент Узбекистана Ислам Абдуганиевич Каримов сделал многое для развития и укрепления дружеских отношений с Российской Федерацией. С момента обретения независимости Узбекистаном были установлены дружеские дипломатические отношения между двумя государствами, которые продолжают укрепляться в настоящий момент. В частности, 6 сентября во время визита Президента Российской Федерации в Самарканд В.В. Путином было отмечено, что Узбекистан может рассчитывать на дружеское плечо России и то, что Россия и дальше будет развивать и укреплять дружеские отношения с Республикой Узбекистан.

---

<sup>33</sup> <http://pravdoryb.info/putin-pochtil-pamyat-karimova-v-samarkande-101615.html>

<sup>34</sup> <http://er.ru/news/145675/>